

Ustuvor vazifalar belgilab olindi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi direktorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda FA rahbariyati hamda tizimdagi ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari ishtirok etdi.



Yig'ilishda Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha

mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli va "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risidagi PF-22-sonli Farmonlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida:

- ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish;
- fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish;
- ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish;
- yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va ilmiy maktablarni mustahkamlash;
- xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish kabi ustuvor vazifalar yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Shuningdek, PF-22-sonli Farmon doirasida quyidagi maqsadlar belgilangan:

- mahallalarni kompleks rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlar va ayollar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash;
- innovatsion iqtisodiyot, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali raqobatbardosh mahsulotlar yaratish;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish va O'zbekiston brendini global maydonda rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21 hamda PF-22-sonli farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosini tashkil qilish va barvaqt ta'minlash bo'yicha Fanlar akademiyasi prezidenti boshchiligida Ishchi guruh tuzildi.

Mazkur Farmonlar ijrosini ta'minlash va oldindan nazoratdan chiqarish bo'yicha Yo'l xarita va ijrosini kunlik tashkil etish bo'yicha kalendar jadvallar asosida har hafta yakunida Farmon topshiriqlari ijrosini muhokama qilish, har oy yakunida Vazirlar Mahkamasiga hisobot berish belgilab olindi.